

**METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING ENGLISH IN THE
CONTEXT OF MULTILINGUAL EDUCATION****Nazarova Mahliyo Vohobjon kizi**

Gulistan State Pedagogical Institute

3rd year student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20328387>**KO'P TILLI TA'LIM KONTEKSTIDA INGLIZ TILI O'QITISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI****Nazarova Mahliyo Vohobjon qizi**

Guliston davlat pedagogika instituti

3-kurs talabasi

mnorboyeva77@gmail.com

Annotatsiya : Hozirgi globallashuv davrda ko'p tilli ta'lim konsepsiyasi Xalqaro ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu qatorda O'zbekiston ham ko'p tilli jamiyat sifatida ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metodologik asoslarni talab etmoqda. Ushbu maqolada ko'p tilli ta'lim kontekstida ingliz tilini o'qitishning metodologik asoslari, o'rgatilayotgan chet tillari va ona tili o'rtasidagi bog'liqlik Fan va Tilni Integratsiyalashgan holda O'qitish (CLIL)metodi asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: metodologiya, ko'p tilli ta'lim, Ingliz tilini o'qitish, CLIL metodi, translingval yondashuv(translanguaging)

Abstract: In the current era of globalization, the concept of multilingual education is gaining importance in the international education system. In addition, Uzbekistan, as a multilingual society, requires modern methodological foundations for teaching English. This article analyzes the methodological foundations of teaching English in the context of multilingual education, the relationship between the foreign languages being taught and the native language, based on the Content and Language Integrated Learning (CLIL) method.

Keywords: methodology, multilingual education, English language teaching, CLIL method, translanguaging

Аннотация: В современную эпоху глобализации концепция многоязычного образования приобретает все большее значение в международной системе образования. Кроме того, Узбекистан, как многоязычное общество, нуждается в современных методических основах преподавания английского языка. В данной статье анализируются методические основы преподавания английского языка в контексте многоязычного образования, взаимосвязь между преподаваемыми иностранными языками и родным языком на основе метода интегрированного обучения содержанию и языку (CLIL).

Ключевые слова: методология, многоязычное образование, преподавание английского языка, метод CLIL, транслингвизм

KIRISH

Keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ko'p tillilik ta'lim konsepsiyasi zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ta'lim berish jarayonida esa ko'p tilli ta'lim kontekstida innovatsion o'qitish metodologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jumladan, xalqaro maydonda

o'zining kommunikativ til mavqeiga ega bolgan ingliz tilini ko'p tilli ta'lim kontekstida o'qitilishini ilmiy-nazariy asosda qayta ko'rib chiqish zarur hisoblanadi.

Ma'lumki, zamonaviy tadqiqotlarda ko'p tilli ta'lim konteksti atamasi keng qo'llanila boshlandi. Bir qancha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, jumladan Ofelia Garcia tomonidan ishlab chiqilgan translingval yondashuv (translanguaging) nazariyasi va Kanadalik tilshunos Jim Cumminsning Tillararo bog'liqlik nazariyasi (Linguistic Interdependence Hypothesis) o'quvchilarning aqliy va akademik rivojlanishida tillar integratsiyasining roli muhimligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, David Marsh tomonida fanga kiritilgan CLIL modeli, ya'ni mazmun va tilni birlashtirilgan holda o'qitish ta'lim jarayonida samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.


Avvalo CLIL atamasi haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur. CLIL modeli 1994-yilda David Marsh tomonidan Yeprova Ittifoqida ko'p tillilikni rivojlantirish va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan. CLIL- fanlar yoki fanlarning ayrim qismlarini chet tili orqali ikki tomonlama, ya'ni mazmunni va chet tilini bir vaqtning o'zida o'rganishga qaratilgan vaziyatlarni anglatadi.

Ushbu yondashuv o'quvchilarning boshqa fanlar bo'yicha bilimlarini mustahkamlash va mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun tildan foydalanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga o'rganilayotgan til va mazmunga xos normalar va konventsional haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan birga kommunikativ (ya'ni shaxsan shaxsga va madaniyatlararo) va kognitiv ko'nikmalarini yaxshilash imkonini berish uchun ishlab chiqilgan (Coyle, 2007, 2008, 2013; Coyle va boshqalar, 2010; Cross, 2013, 2016; Dalton-Puffer, 2007b; Mehisto, Marsh, & Frigols, 2008)¹

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda, ko'p tilli ta'lim kontekstida ingliz tili o'qitishning metodologik asoslarini o'rganish va aniqlash uchun analitik va komparativ tahlil metodlari qo'llanildi. Mazkur tadqiqot doirasida pedagogik tadqiqotlar, xalqaro ilmiy nazariyalar va adaviyotlar, hamda didaktik konseptual yondashuvlar o'rganildi.

Edinburg universiteti professor, tadqiqotchisi Do Coyle CLIL metodini rivojlantirgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U CLIL konsepsiyasini ilmiy jihatdan asoslab bergan va bugungi kunda uning shu sohada ishlab chiqqan metodikasi butun dunyoda qo'llanilib kelinmoqda. Coyle CLIL bo'yicha 4C Framework modelini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, CLIL darsi asosiy 4 ta tarkibiy qismlarga bo'linadi. Bu elementlar: Mazmun (Content), Muloqot (Communication), Fikrlash (Cognition) va Madaniyat (Culture). Mazkur model o'quv jarayonini yuqoridagi 4 ta komponentni jamlagan holda tashkil etishni ko'zda tutadi.

¹ Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Kontent va tilni integratsiyalashgan o'rganish*. Kembrij, Buyuk Britaniya: Kembrij universiteti nashriyoti.



1-rasm.4C Framework modeli.

Manba:Internet manbasi asosida

Natija.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki,4C modeli asosida olib borilgan darslar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularning boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini ham sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jumladan,Muloqot qismi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va dars davomida faol muloqot qilishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, Madaniyat bo‘limi o‘quvchilarning turli xalqlar madaniyati bilan tanishib ularga nisbatan o‘zaro hurmat bilan qarashi hamda dunyoqarashining kengayishiga ham samarali xizmat qiladi.

Fikrlash (Cognition)komponenti o‘quvchilarning tanqidiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.Qolaversa,dars davomida o‘quvchilar berilgan mavzularni tahlil qilishadi,muammoli vaziyatlarga yechim topishadi va xulosalar chiqarishadi.Bu ko‘nikmalar o‘z navbatida dars jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Tahlil davomida,Mazmun(Content)qismining ham muhimligi kuzatildi.Ushbu component o‘quvchilarning fan bilimlarini mustahkamlash hamda tilni fan bilan bog‘lab o‘rganishga yordam beradi.O‘quvchilar yangi so‘zlarni va iboralarni fan kontekstida o‘rganib borishadi.Bu qism darsni maqsadli va tizimli olib borilishini ta‘minlaydi.

Xulosa.Ushbu tadqiqotda CLIL metodikasi hamda 4C Framework modelining ko‘p tilli ta‘lim kontekstida ingliz tilini o‘qitish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi.Ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatdiki,yuqoridagi model asosida shakllantirilgan darslar o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini,balki boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini yanada kengaytirishga yordam

beradi. Ayniqsa, 4C modelining to'rt komponenti dars jarayonlarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda, mavzuda berilgan so'zlarni konteksti bilan o'rganishga hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali yordam beradi.

Shuningdek, CLIL metodikasi tilni real kontekstda qo'llashga imkon yaratadi va o'quvchilarning global dunyoqarashini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Coyle D., Hood P., Marsh D. Clil. – 2010.
2. Coyle D. Strengthening integrated learning: Towards a new era for pluriliteracies and intercultural learning //Latin American Journal of Content & Language Integrated Learning. – 2015. – T. 8. – №. 2. – C. 84-103.
3. Cummins, J. (1979). Linguistic interdependence and the educational development of bilingual children. Ontario Institute for Studies in Education.

Websahifalar

1. <http://www.onestopenglish.com/clil/what-is-clil/> .Onestop English
2. https://www.linkedin.com/posts/tuaib-muhammad_clil-esl-4csclil-activity-7301801289133305856-BW9I
3. https://web.archive.org/web/20180111052655/http://www.englishappliedlinguistics.com/uploads/2/4/1/9/2419477/integration_of_content_and_langauge_tesol_encyclopedia_author_version.pdf